

## O'QUVCHILARDA AJRATILGAN BO'LAKLAR VA KIRITMALARNI ANGLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

O'razaliyeva Sevinch Muradulla qizi

ToshDO 'TAU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

[sevinchorazaliyeva75@gmail.com](mailto:sevinchorazaliyeva75@gmail.com) +998973023105

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek tilining sintaktik tizimida ajratilgan bo'lak va kiritmalar hodisasi o'rganilgan. Ajratilgan bo'laklarning gap tuzilmasidagi grammatik o'rni va nutqdagi ifodalilikni oshirishdagi vazifasi tahlil qilingan. Kiritmalarning esa gapga qo'shimcha ma'no munosabatlarini olib kirishdagi roli izohlangan. Maqolada ajratilgan bo'lak va kiritmalarning o'xshashliklari va farqlari ilmiy asosda solishtirma metod orqali yoritilgan. Tadqiqot tili madaniyatini rivojlantirishdagi amaliy ahamiyati ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** Ajratilgan bo'laklar, kiritma, nutq madaniyati, tinish belgilari, ohang, grammatik birlik

Til inson tafakkuri va hissiy dunyosining ifodasi sifatida o'z strukturaviy jihatlari bilan e'tiborni tortadi. Gapning sintaktik tuzilmasida ajratilgan bo'lak va kiritmalar o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ular nutqning aniqligi va ifodaliligin oshiradi. Maqolada ajratilgan bo'laklar va kiritmalarning mohiyati, ularning gap tarkibidagi funksional o'rni tahlil qilinadi.

Ajratilgan bo'lak va kiritmalarni tizimli solishtirish asosida ularning nutqdagi funksional farqlari ochib beriladi. Odatda ajratilgan bo'lak va kiritmalar alohida-alohida o'rganiladi. Bu maqolada esa ikkalasi bir tizimda o'zaro taqqoslab tahlil qilindi: farqlari, o'xshashliklari, ularning gap tuzilishiga va nutqning ifodaliligiga ta'siri ilmiy yondashuvda ko'rsatilgan.

**Ajratilgan bo'laklar** gapning grammatik asosiy qismlaridan biri bo'lib ohang va tinish belgilari yordamida ajratiladi. Ajratilgan bo'laklar asosan fikrni ta'kidlash,

bo‘rttirish, gapning ma’nosi noaniq bo‘lsa aniqlash, aniq bo‘lsa qayta nomlash kabi holatlarda keladi.

Ajratilgan bo‘laklarni hosil qilishning ikki xil usuli mavjud.

1. Tartibni o‘zgartirish orqali ajratilgan bo‘lakni hosil qiladi.
2. Izohlash orqali ajratilgan bo‘lakni hosil qiladi.

So‘zlovchi tinglovchi fikrini, diqqatini qaratish uchun ajratilgan sifatlovchi aniqlovchidan foydalanadi. Buning uchun sifatlovchi aniqlovchi sifatlanmishdan keyin keltiriladi va bunda o‘rni o‘zgargan sifatlovchi aniqlovchining ma’nosi avvalgi holatiga nisbatan ta’kidlangan, bo‘rttirilgan hisoblanadi. Masalan: Men shu yerdan uy qurmoqchiman- baland, hashamatli. Ushbu jumlada “uy” so‘zi sifatlanmish, “hashamatli”, “baland” so‘zleri sifatlovchi aniqlovchi, biroq sifatlovchi sifatlanmishdan keyin kelganligi uchun ajratilgan sifatlovchi aniqlovchiga aylandi.

Ajratilgan bo‘laklar birdan ortiq bo‘lsa, boshqa bo‘laklardan tire yordamida ajratiladi.

Izohlash orqali ajratilgan bo‘laklar yordamida ajratilgan ega, ajratilgan kesim, ajratilgan hol, ajratilgan to‘ldiruvchi va ajratilgan qaratqich aniqlovchilar hosil qiladi.

**Ajratilgan ega.** Ajratilgan bosh bo‘laklar o‘zidan oldin kelgan egani izohlaydi. Masalan: Men, Sevinch O‘razaliyeva, ToshDO‘TAUning 3-bosqich talabasiman.

Ajratilgan ega fanda izohlovchi aniqlovchi deb ham yuritilaveradi

**Ajratilgan kesim.** Ajratilgan bosh bo‘laklar o‘zidan oldin kelgan kesimni izohlaydi. Masalan: Men uni ko‘ndirishga harakat qildim – yalindim, yolvordim – fe’l kesim

U shoir – inson ruhining bilimdoni – ot kesim

**Ajratilgan qaratqich aniqlovchi.** Ajratilgan qaratqich aniqlovchi asosan gapda noma’lum tushunchani aniqlab yoki qayta nomlab keladi.

Masalan; Boyagi yigitning, Avazning, qo‘li gul ekan – aniqlab kelgan.

Bugun, o‘g‘limning, ko‘zimning qorasining, tug‘ilgan kuni – qayta nomlagan.

**Ajratilgan hol.** Hu ana shu joyda, taxta ko‘prikning ostida, kichik buloq bor.

O‘sha kuni kechqurun, daladan qaytishda, ularni uchratib qoldim.

**Ajratilgan to‘ldiruvchi.** Sizga, o‘rta bo‘yli qizga, atlas juda yarashadi – vositali to‘ldiruvchi

Kecha- Kunduz sizni, vafodorimni, o‘ylayman – vositasiz to‘ldiruvchi

**Kiritmalar** gap holatida bo‘lib, nutqda gapdan anglashilayotgan fikrga qo‘srimcha tariqasidagi yangi fikrni bayon etish vositasi. Kiritmalar asosiy gap bilan grammatik jihatdan bog‘lanmasa-da, mazmunan undan anglashilgan voqe-hodisaning sababini bildirib, mazmunan qo‘shma gapda bo‘lgani kabi izohlash vazifasini o‘taydi. Kiritma gapning nisbiy mustaqilligi gap ohangidan ham anglashilib turadi. Kiritma gap maqomini olish uchun o‘sha kiritma gapda kesim bo‘lishi kerak.

Masalan: Musobaqada Rahimberdi (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda.

Agar kiritma gaplar gapdan tushirib qoldirilsa ham, gapning asosiy ma’nosiga ziyon yetmaydi. Kiritma gaplar o‘zi qo‘llanayotgan gap bilan mazmunan bog‘liq bo‘lishi shart. “O‘tkan kunlar”(siz bu romanni o‘qigansiz) o‘zbek romançiligi tarixida alohida o‘rniga ega.

Kiritmalar asosan, kitobiy uslubga xos. U fikrga qo‘srimcha ma’lumot bergenligi uchun, asosan, gap o‘rtasida keladi va yozuvda doimo gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi. Masalan: Uni tanishsa kerak (Farg‘onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi.

Kiritmalar eng ko‘p qo‘llaniladigan soha bu dramatik tur. Dramatik turda qahramonning nutqi qay tarzda bayon etilishi remarkalarda beriladi. Remarka - personaj nomi bilan uning nutqi orasidagi qavs bilan ajratiladi. Masalan: Xon (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur.

Domla (odamlarga qarab). O‘qumak va mullo bo‘lmak uchun pul kerak.

Kiritma gaplar qo‘shma gaplar o‘rtasida kelsa, qo‘shma gapning birinchi qismidan so‘ng keladi va vergul yoki boshqa tinish belgilari bo‘lsa kiritma gapdan keyin yoziladi.

Masalan: Uni tanishsa kerak, bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi.

Uni tanishsa kerak (Farg‘onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi.

Kiritma gaplar o‘z ichida vergul bilan qo‘llanilishi mumkin, ba’zan his- hayajon bilan ifodalansa undov belgisi qo‘lanilishi mumkin.

Masalan: Shokir sartarosh (tumanda uni hamma taniydi, siz ham tanisangiz kerak) o‘g‘lini uylantirmoqchi bo‘libdi.

Sarpardaning chap tomonida, baland qilib to‘shalgan oq kigizlar ustida... boshiga qora telpak, egniga uzun qora jun chakmon kiygan bir odam... (Yo rab! — bu odam Sulton Mahmud G‘aznaviy edi!) uzala tushib yotardi!

### Ajratilgan bo‘lak va kiritmaning farqli jihatlari

Ajratilgan bo‘lak	Kiritma
Gapda aniqlik va tushuntirish berish uchun ishlataladi	Fikrga bog‘liq qo‘srimcha ma’lumot berish uchun ishlataladi
Gapning grammatik qismlaridan biridir	Gapning grammatik qismiga kirmaydi
So‘z va so‘z birikmasi shaklida qo‘llaniladi	Gap shaklida qo‘llaniladi
O‘rnini almashtirish gap ma’nosini buzadi	Olib tashlansa ham gap ma’nosini saqlanadi

## Tadqiqot va muhokama

Mazkur tadqiqot 281-maktab 9-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilib, unda ajratilgan bo‘laklar va kiritmalarning o‘zlashtirilish darajasi o‘rganildi. Tadqiqotda jami 20 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ularga 10 ta gap (har ikkala turgan 5 oson va 5 qiyin na’munaviy gap) taqdim etildi. Topshiriq o‘quvchilarning ajratilgan bo‘lak va kiritmalarni faqatgina tinish belgisidangina emas, balki, kontekstsda qanday ma’noda kelayotganiga qarab ajratib olishiga qaratilgan. Ushbu gaplar orqali ularning sintaktik bilimlari, grammatik tahlil ko‘nikmalari hamda nutqiy ifodaning uslubiy jihatlarini anglash darajasi baholandi.

Tadqiqot summativ baholash yondashuvi asosida amalga oshirildi.

**Quyida tadqiqot natijalarining umumiy statistik ko‘rinishi keltiriladi:**

Bo‘lim	To‘g‘ri (%)	Tushungan (%)	Qiynalgan (%)
Ajratilgan bo‘lak – oson	85%	75%	15%
Ajratilgan bo‘lak – qiyin	55%	35%	45%
Kiritma – oson	90%	80%	10%
Kiritma – qiyin	50%	30%	50%

Ajratilgan bo‘laklarga oid oson gaplarda o‘quvchilar yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishdi, bu esa ularning ajratilgan ega va sifatlovchi aniqlovchi bo‘laklarni yaxshi anglashini ko‘rsatdi. Ayniqsa, tire orqali ajratilgan izohlovchi bo‘laklar va ohangiy urg‘u beruvchi strukturaviy o‘zgarishlar asosida tahlil qilishga o‘rganganliklari sezildi.

Biroq qiyin gaplarda, ayniqsa ajratilgan hol, to‘ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi kabi murakkab tuzilmali ajratmalar ularning ko‘pchiligi uchun tushunarsiz bo‘ldi. Bu o‘quvchilarda sintaktik murakkablikni tushunishdagi tayyorgarlik yetarli emasligini ko‘rsatdi.

Kiritmalar bo‘yicha esa oson gaplarda yuqori natijalar qayd etildi. O‘quvchilar qavs ichida berilgan, grammatik bog‘lanmagan kiritma gaplarni aniqlashda yetarli darajada muvaffaqiyatli bo‘lishdi. Biroq murakkab kiritma gaplarda, ayniqsa ko‘p qatlamli va fikrli ohangni o‘z ichiga olgan kiritmalarni ajratishda ancha qiynalishdi. Ko‘pchilik o‘quvchi kiritma va ajratilgan bo‘lakni farqlay olmadi, bu esa mazmun va shakl asosida tahlil qilish ko‘nikmasining yetishmaslidan dalolat beradi.

Yutuqlari:

O‘quvchilar o‘rtasida ajratilgan bo‘laklarning asosiy turlari (ega, aniqlovchi) va oson kiritma gaplar bo‘yicha barqaror bilim shakllangan.

Ular ajratish belgilari (tire, qavs, vergul) va ohangiy intonatsiyani tushunish asosida tahlilni bajarishgan.

Yozma materiallar bilan ishslash, ya’ni o‘qib tahlil qilishda faol ishtirok etishgan.

Kamchiliklari:

Sintaktik murakkablik ortgan sayin, o‘quvchilarning tahliliy fikrlash darajasi pasaygan.

Kiritma va ajratmaning grammatik jihatdan qanday farq qilishini tushuntirishda noaniqlik mavjud.

Ajratilgan hol va to‘ldiruvchilar bilan ishslash ko‘nikmasi past.

Kiritmaning uslubiy, kontekstual ahamiyati yetarli darajada anglanmagan.

Xulosa va tavsiyalar:

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 9-sinf o‘quvchilari orasida ajratilgan bo‘laklarning asosiy ko‘rinishlari va kiritmaning oddiy turlari yaxshi o‘zlashtirilgan. Biroq, uslubiy jihatdan murakkab, fikran chuqur, sintaktik jihatdan murakkab gaplar ustida tizimli ishslash zarur. Shuning uchun:

- Ajratilgan bo‘laklar va kiritmalarga doir bosqichma-bosqich murakkablik asosida mashqlar tuzish;
- Kiritmalarni ajratilgan bo‘laklardan intellektual asoslangan solishtirish asosida farqlash;
- Har bir sintaktik birlikni uslubiy vazifasi bilan birga o‘rgatish;
- Tahlilga asoslangan yozma va og‘zaki topshiriqlar orqali bilimni mustahkamlash tavsiya etiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent – 2010
2. A. G‘ulomov, M. Asqarova. “Hozirgi o‘zbek tili va adabiy tili-Sintaksis”. “O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent – 1987
3. F. Abdurahmonov, A. Sulaimonov, X. Xoliёrov, Ж. Омонтурдиев. “Хозирги ўзбек адабий тили – Синтаксис”. “Уқитувчи”. Тошкент — 1979
4. U. Jalilov. “Matn lingvistikasi: Kirish va kiritmalar tahlili”. “Filologiya va madaniyat”. Fan – 2011.
5. H. Maхмудов, A. Нурмонов. “Ўзбек тилининг назарий грамматикаси – Синтаксис”. “Ўқитувчи”. Тошкент – 1995.
6. <https://www.ajhuman.uz/article/871854708498/abstract>
7. <https://www.researchgate.net/publication/352351935>